


## 2022- yil yanvar – sentabr oylarida uchun Samarqand viloyatida qurilish ishlari

2022- yilning yanvar – sentabr oylarida Samarqand viloyatida jami **6 330,9 mlrd. soʻmlik** qurilish ishlari bajarilib, oʼsish surʼati 2021- yilning yanvar - sentabr oylariga nisbatan **111,8 %** ni tashkil etdi.




### 2022- yil yanvar- sentabr oylarida qurilish ishlari hajmining tarkibi, ulushi % da



Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxona va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi boʻyicha shakllanadi.


Amalga oshirilgan qurilish ishlari mulkchilik shakli, davlat va nodavlat boʻlgan korxona va tashkilotlar tarkibi boʻyicha boʻlinadi.



**Maʼlumot uchun:** qurilish ishlari hajmi bu – oʼz kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy taʼmirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.



## 2022- yil yanvar- sentabr oylarida mulkchilik shakllari bo'yicha qurilish ishlari hajmi



**Qurilish ishlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni**

2022- yil 1- oktabr holatiga ko'ra qurilish sohasida ro'yxatdan o'tgan jami korxona va tashkilotlar soni 3,6 mingta, faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni esa, 3,4 mingtani tashkil etib, o'tgan 2021- yilning mos davriga nisbatan 100 taga ko'paygan.

2022- yilning yanvar- sentabr oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan fuqarolik obyektlarini qurilishi ishlari hajmi 298,4 % ni tashkil qilib (jami qurilishdagi ulushi 68,4 %) ni tashkil qildi. Bu qurilish sohasida korxona va tashkilotlar sonining ko'payishiga asosiy omil bo'lib xizmat qildi.

Fuqarolik obyektlarini qurilishi bo'yicha qurilish ishlaring eng yuqori ulushi kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2021- yilning yanvar-sentabr oylaridagi jami qurilish ko'rsatkichiga nisbatan 70,8 % ni tashkil etdi.




## **Samarqand viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalarini soni (birlikda)**

	<b>Holatiga ko'ra:</b>		<b>O'tgan yilga nisbatan, (+,-)</b>
	<b>01.10.2021- yil</b>	<b>01.10.2022- yil</b>	
<b>Samarqand viloyati</b>	<b>3388</b>	<b>3488</b>	100
Samarqand sh.	1190	1186	-4
Kattaqo'rg'on sh.	120	139	19
tumanlar:			0
Oqdaryo	150	163	13
Bulung'ur	80	76	-4
Jomboy	137	141	4
Ishtixon	153	143	-10
Kattaqo'rg'on	138	141	3
Qo'shrabot	73	78	5
Narpay	85	85	0
Payariq	278	302	24
Pastdarg'om	326	341	15
Paxtachi	72	80	8
Samarqand	148	157	9
Nurobod	61	68	7
Urgut	240	241	1
Toyloq	137	147	10



## Samarqand viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalarining hududlar kesimida ulushi (% da), 01.10.2022- yil holatiga




**Ma'lumot uchun:** Viloyatda qurilish korxonalari soni bo'yicha eng ko'p ulushga ega bo'lgan hududlar Samarqand shahri (34,0 %), Pastdarg'om (9,8 %) va Payariq (8,7 %) tumanlaridir.

2022- yilning yanvar – sentabr oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **1343,4** mlrd. so‘mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2021- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan **183,5 %** ni tashkil qilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi **21,2 %** ni tahskil qildi.




### Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jamiga nisbatan ulushi, %da



**Ma’lumot uchun:** yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko‘p ulushi Toyloq tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **74,4 %**), Pastdarg’om tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 55,8 %), Bulung’ur tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 32,7 %), va Samarqand (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 32,7 %) tumanlarga to‘g’ri keldi.



## **Qurilish ishlari umumi hajmida kichik korxona va mikrofirmalarning ulushi, % da**



- Kichik korxona va mikrofirmalar**
- 2022- yil yanvar-sentabr oylarida
  - 2021- yil yanvar-sentabr oylarida

Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2022- yil yanvar-sentabr oylarida qurilish ishlarini bajargan boshqa tashkilotlarga nisbatan ko'payish kuzatildi. Ular tomonidan jami qurilish ishlari hajmining **66,3 %** i bajarilib, 2021- yilning yanvar- sentabr oylariga nisbatan **0,5 %** punktga ko'payish kuzatildi.


Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2021- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **112,5 %** ni tashkil etgan holda **4199,3 mlrd. so'm** miqdorida qayd etildi.

Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlaridagi ulushi **12,5 %** ni tashkil etib, **788,2 mlrd. so'm** miqdorida qayd etildi. 2021- yilning yanvar - sentabr oylariga nisbatan kamayish kuzatilib, **66,3 %** ni tashkil etdi.



## Qurilish ishlari umumiy hajmida norasmiy sektorning ulushi

Mlrd.so'm




Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **119,7** mlrd. so‘mlik qurilish ishlari bajarilgan bo‘lib, o‘sish sur’ati 2021- yilning yanvar- sentabr oylariga nisbatan **33,6 %** ni tashkil qilib, jami amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmidagi ulushi **1,9 %** ni tashkil etdi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **6211,2** mlrd. so‘mlik qurilish ishlari bajarilib, o‘sish sur’ati **113,0 %** ni va jami amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmidagi ulushi **98,1 %** ni tashkil etdi.



## Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo‘lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari, % da

2022- yil  
Yanvar- sentabr  
oylarida



Davlat mulki



Nodavlat mulk

2022- yil  
yanvar – sentabr  
oylarida

Samarqand viloyatida qurilish ishlari



## Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi

2022- yil yanvar- sentabr oylarida



71,0 %

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurish bo'yicha bajarilgan. Jami qurilish ishlarining **71,0%** yoki **4497,1** mlrd. so'mni tashkil etgan.



29,4 %

Yirik qurilish tashkilotlari bo'yicha yangi qurilish hisobidan **1320,1** mlrd. so'mlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish korxonalarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi **29,4 %** ni tashkil etdi.



54,0 %

Kichik korxona va mikrofirmalar bo'yicha yangi qurilish hisobidan **2428,4** mlrd. so'm yoki jami kichik korxona va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi **54,0 %** ni tashkil etdi.



16,6 %

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasiga **748,6** mlrd. so'm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi **16,6%** ni tashkil etdi.



## Hududlar kesimida qurilish ishlari 2022- yil yanvar-sentabr oylarida

	Qurilish ishlari hajmi (mlrd. so‘m)	O‘sish sur’ati, %da	Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari (mlrd. so‘m)
<b>Samarqand viloyati</b>	<b>6 330,9</b>	<b>111,8</b>	<b>4 497,1</b>
Samarqand sh.	1 928,6	108,3	1 708,8
Kattaqo‘rg‘on sh. tumanlar:	102,9	105,4	93,4
Oqdaryo	467,7	100,2	365,3
Bulung‘ur	182,3	102,7	125,9
Jomboy	270,6	100,5	215,9
Ishtixon	275,0	100,4	233,9
Kattaqo‘rg‘on	179,2	100,3	152,9
Qo‘shrabot	156,2	112,1	116,9
Narpay	176,4	102,3	148,4
Payariq	399,1	102,2	81,5
Pastdarg‘om	469,8	128,4	314,8
Paxtachi	131,4	100,1	125,4
Samarqand	316,8	117,1	166,4
Nurobod	75,9	105,0	63,4
Urgut	311,5	100,6	193,4
Toyloq	887,5	157,3	390,8

\*Hududlar bo‘yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo‘shtgan holda



## Samarqand viloyatida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari,%da

2022- yil yanvar- sentabr

**2,9**




Ixtisoslashtirilgan  
qurilish ishlari

**68,4**




Fuqarolik obyektlarini  
qurilishi

**28,7**



Bino va inshootlarni  
qurilishi

**4,4**



Ixtisoslashtirilgan  
qurilish ishlari

**27,7**



Fuqarolik obyektlarini  
qurilishi

**67,9**



Bino va inshootlarni  
qurilishi

**Ma'lumot uchun:** Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.




## Bino va inshootlar qurilishi

ulushi %da

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi **3,7 %** ni tashkil etib, 2021- yilning yanvar- sentabr oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **20,7 %** punktga ko'mayish kuzatildi. Ushbu faoliyat turida kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2021- yilning yanvar-sentabr oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **4,6 %** punktga ko'paygan, **52,9 %** ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2021- yilning yanvar-sentabr oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **16,1 %** punktga ko'payib **43,4 %** ni tashkil etdi.



2022- yil  
yanvar – sentabr  
oylarida

Samarqand viloyatida qurilish ishlari




## Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari

ulushi %da

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi **29,2** % ni tashkil etdi va 2021- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan **1,8** % punktga kamaydi.

Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar ulushi mos ravishda **70,8** % (**11,9** % punktga ko'paydi).



■ 2021- yil yanvar-sentabr oylarida ■ 2022- yil yanvar-sentabr oylarida

2022- yil  
yanvar – sentabr  
oylarida


Samarqand viloyatida qurilish ishlari



## Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

ulushi % da

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi **0,9 %** ni tashkil etdi va 2021- yilning yanvar - sentabr oylariga nisbatan **-26,4 %** punktga kamaydi. **99,1 %** ulush kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2021- yilning mos davriga nisbatan **26,4 %** punktga ko'payish kuzatildi.





## Hududlar kesimida qurilish ishlari 2022- yil yanvar- sentabr oylarida

### Eng yuqori hajm

(mlrd. so'm)

Samarqand sh.  
1928,6

1

2

Toyloq  
887,5

Pastdarg'om  
469,8

3



### Eng kichik hajm

(mlrd. so'm)

Nurobod  
75,9

1

2

Kattaqo'rg'on sh  
102,9

3

Paxtachi  
131,4





## SAMARQAND VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



**Samarqand viloyati  
Statistika boshqarmasi**

**Investitsiya va qurilish statistikasi  
bo'limi**

*Aloqa telefoni: (66) 230-45-32*

**2022- yil  
yanvar – sentabr  
oylarida**

**Samarqand viloyatida qurilish ishlari**